

AZIZIDDIN NASAFIY - XIII ASRNING BUYUK TASAVVUF OLIMI

Sadulloyeva Zebiniso Fayzullo qizi

Buxoro davlat universiteti

Islom tarixi va manbashunoslik

yo‘nalishi II bosqich magistranti

Tel: +998900013221

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aziziddin Nasafiyning hayoti va ilmiy faoliyati, Nasafiyning asosiy tasavvufiy qarashlari va falsafiy g‘oyalari tarixiylik va analiz sintez usullaridan foydalanib, tasavvufshunos faylasuflar g‘oyalari bilan uyg‘unligi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tasavvuf, shariat, islom, tariqat, falsafa, Buxoro, Nasaf, borliq, bilish, komil inson, shayx, murid.

Aziziddin ibn Muhammad Nasafiy — irfon falsafasining mumtoz vakillaridandir. Asl ismi – Abdulaziz bo‘lgan. Aziziddin Nasafiy nomi bilan tarixda mashhur bo‘lgan. Tasavvufning yetuk nazariyotchisi vatandoshimiz mutasavvuf Aziziddin Nasafiy XIII asrning birinchi choragida Nasaf shahrida tug‘ilgan. Tug‘ilgan joylariga nisbat berilib – Nasafiy nomi bilan shuhrat topganlar.

U yoshligidanoq, ilk diniy va dunyoviy ilmiy ma‘lumotlarni o‘z vatani Nasaf shahrida otasi Muhammaddan o‘rganib, keyinroq mukammal bilim olish maqsadida, shu davrning islom madaniyati markazi bo‘lgan Buxoroi sharif shahriga yuz tutib, o‘z davridagi diniy va dunyoviy ilmlarni: fors va arab tillari grammatikasi, kalom, hadis, tasavvuf ta‘limoti, tafsir, ta‘vil, adabiyot, axloq, poetika, tarix, falsafa, riyoziyot, mantiq, tabiatshunoslik, nujum (astronomiya), fiqh, psixologiya, kimyo, biologiya, tibbiyot ilmlarining antropologiya, genetika, anatomiya, fiziologiya, farmakologiya va davolash usullarini o‘zlashtirishga jiddu jahd bilan kirishgan.

Aziziddin Nasafiy Buxoro shahrida o‘z zamonasining mashhur olimlari va shayxlaridan mukammal bilim olganidan keyin, kalom ilmi, hikmat ilmi va tasavvuf ta‘limotidan madrasalarga mudarrislik qildi. Mutafakkir nihoyatda nozik tabiat, zukko, teran ilmiy-falsafiy tafakkur va erkin dunyoqarashga ega faylasuf olimligi bilan tezda Nasaf va Buxoroi sharif shaharlarida shuhrat qozondi.



Keyinroq, mutafakkirning shuhrati butun Movarounnahr va Xuroson mamlakatlariga keng yoyildi. Faylasuf ko‘proq, hikmat ilmi (falsafa) ga qiziqar edi. Shuning uchun u qadimgi Sharq falsafasi, zardushtiylik va buddaviylik dinlari, antik yunon falsafasining yetuk namoyandalari: Fales, Anaksimandr, Anaksimenes, Anaksagor, Pifagor, Geraklit, Suqrot, Aflotun, Aristotel, Levkip, Demokrit, Epikur, Lukretsiy, Gippokrat va Galen kabi faylasuf va tabiblarining ta‘limotlarini o‘qib o‘zlashtirdi.

Sharq Uyg‘onish davri falsafasi tarixining yirik mutafakkir va faylasuflari: Abu Yusuf Kindiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Muhammad Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Nosir Xisrav, Nasriddin Tusiy, Mahmud Shabustariy, Muhyiddin ibn Arabiy, Aynulquzot Hamadoniy, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Sa‘diddin Hamaviy va boshqa faylasuf olimlarning ta‘limotlarini o‘zaro taqqoslab ilmiy tahlil qilgan va ulardan ilmiy haqiqat nazariyasini yaratishga harakat qildi. Ayniqsa, Ibn Sino ta‘limoti va hind falsafasi uning keyingi ilmiy faoliyatida sezilarli iz qoldiradi¹.

Adabiy va tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Aziziddin Nasafiy diniy va dunyoviy ilmlarni o‘zlashtirgandan keyin tasavvuf ta‘limotini mukammal o‘rganish maqsadida, shayx Sa‘diddin Hamaviyga murid bo‘ladi

Sa‘diddin Hamaviya Nishopurda joylashgan Nizomiya madrasasida diniy fanlarni o‘rganganidan so‘ng Xorazm viloyatiga yo‘l olgan. U yerda Kubraviyya tariqatining asoschisi sifatida tanilgan Najmiddin Kubro (v. 618/1221) ning xalifalari safidan o‘rin olgan. Hamaviy kubroviya tariqati asoschisining muridi ham bo‘lgan. Biroq o‘sha yillarda mintaqada yuz bergan Mo‘g‘ul istilosidan qochib, u Ibn al-Arabiy atrofida shakllangan maktablar bilan tanishgan, keyinchalik esa yana Eron va O‘rta Osiyoga qaytgan².

Faylasuf o‘z ta‘limotini fors mamlakatlarida, jumladan, Afg‘oniston, Eron, Iroq, Pokiston, Hindiston va Arabiston davlatlarigacha targ‘ib qilish va rivojlantirish maqsadi bilan birga, o‘ziga tinch makon istab, Xuroson va Movarounnahr mintaqasidagi eng sokin, eng osoyishta maskan Abrko‘hda qoladilar. Bu yerlarda mo‘g‘ul oyog‘i yetmagan va xilvat bir joy bo‘lganligi tufayli mana shu tog‘li

¹ Komilov. N. Komil inson. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – B. 3.

² Reşat Öngören. Sa‘diddin-i Hammûye. DİA, c. XXXV, TDV Yay. Istanbul, 2008. – B. 390.



shaharda qo'nim topadilar. U yerda o'zlariga xos ilmiy muhit, ilmiy halqalar yaratishga harakat qiladilar.

Umri oxirida Yazd shahrining Abrko'h degan joyida Sa'diddin Hamaviy qabri yonidagi xonaqohda yashab shu yerda vafot etadi³.

Nasafiy Qur'ondan arabcha iqtiboslar, hadislar va so'fiy mualliflarning so'zlaridan, asarlarida fors tilidan foydalanishni afzal bilgan. Bu holat, Aziziddin Nasafiyning Ibn al-Arabiyning g'oyalarini fors tilida izohlagan ilk mufassirlaridan biri sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lgan.

Aziziddin Nasafiyning asarlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

“**Kashf al-haqoyiq**” asari: Buxoroda 1281 yilda yozilishi boshlangan ushbu hajmli asar Aziziddin Nasafiyning eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Asarning ajralib turadigan tomoni shundaki, u ensiklopedik uslubda yozilgan. Asarda oxirgi uch bob va xulosa qismi yetishmasligiga qaramay, “Tanzil” asaridan ham uzunroqdir.

“**Bayon at – tanzil**” asari: Nomini bevosita Aziziddin Nasafiyning o'zi “**Bayon at – tanzil**” deb qayd etgan. Asarning yozilgan sanasi ma'lum emas. Aziziddin Nasafiy bu asarni ham darvishlarning iltimosi bilan yozgan.⁴

“**Al-Maqсад al-Aqso**” asari: Aziziddin Nasafiyning eng keng tarqalgan va mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarning turli qo'lyozmalari, fors tilidagi asl nusxalari va shuningdek, bir nechta turkcha tarjimalari mavjud. Biroq “**Al-Maqсад al-Aqso**” asari aslida arab tilida yozilgan. 835/1435 yilda Kamoliddin Husayn Xorazmiy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan degan fikr ham mavjud⁵.

“**Al-Maqсад al-Aqso**” qo'lyozmalari soni Islom geografiyasida ushbu

³ ŞEYDA ÜLKÜ ŞAHİN. AZİZ NESEFÎ'NİN TASAVVUF ANLAYIŞINDA “ KENDİNİ BİLME ” YOLLARI. – KONYA.SOSYAL BİLİMLER KONYA ENSTİTÜSÜ,2021

⁴ Aziziddin Nasafiy. Bayon at-tanzil. Bodleian Library, Oxford. – B. 1a.

⁵ Kâtib Çelebi, *Keşfü'z-Zünûn*, nşr. Kilisli Muallim Rifat-Şerafeddin Yaltkaya, Tarih Vakfı Yay., İstanbul, 2017. J. II. – B. 1805-1806.



asarning juda keng tarqalganidan darak beradi. Eron, Turkiya, Pokiston, Hindiston va Xitoy hududlarida ko‘plab nusxalari mavjud⁶.

“Al-Inson al-Komil” asari: Ushbu asar kirish qismi va yigirma ikki bobdan iborat tahlillar to‘plamidir. Aziziddin Nasafiy asarining kirish qismida yangi boshlovchilar uchun o‘n bob, sufi yo‘lida ancha ilg‘or bo‘lganlar uchun esa yana o‘n bob yozganini bildiradi. O‘zbek adabiyotshunosi, tarjima va tasavvufshunos olimi Najmiddin Komilov tomonidan “Komil Inson” nomi bilan asarning muqaddima qismini o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Olim Davlat tomonidan asarning to‘liq tarjimasi nihoyasiga yetkazildi.

“Zubdat al- al-haqoyiq” asari Aziziddin Nasafiyga tegishli ushbu asar taxminan yetmish betdan iborat bo‘lib, boshqa asarlariga nisbatan qisqaroq hisoblanadi. Kitob ikki asosiy bo‘limdan tashkil topgan: birinchi bo‘limda buyuk olam yoki makrokosmos haqidagi bilim muhokama qilinadi, ikkinchi bo‘limda esa kichik olam yoki mikrokosmos haqidagi bilim yoritiladi. Muhokamalar faylasuflar, shariat ahli va hikmat ahli e‘tiqodlari shaklida taqdim etilgan⁷.

Xulosa shuki, Sharq mutafakkiri, tasavvuf vakili, faylasuf, mutakallim, islom ilmlari, xususan, Qur‘on tafsiri, hadis, fiqh, kalom va falsafa sohalarida chuqur bilimga ega olimlardan biridir. U o‘z asarlarida Sharq falsafasining dolzarb muammolarini ko‘tarib chiqqan.

Aziziddin Nasafiyning so‘fiyona falsafasida ilohiyot ta‘limoti ustun turadi. Shu bilan birga, uning g‘oyaviy qarashlari inson, tabiat va Alloxning birligi, mikroolamdagi inson faoliyatining ahamiyati, aql haqidagi

fikrlar, dunyoni bilish mumkinligi to‘g‘risidagi qarashlar bilan uyg‘unlashib ketgan.

Nasafiyning asarlarida ajralib turadigan birinchi belgi — sodda, lekin tushunarli, tafsilotlarga ko‘p o‘rin bermaydigan va fors tilida yozilgan uslubni tanlaganidir. Buyuk yurtdoshimizning uzoq moziydan bizgacha yetib kelgan ilmiy merosini o‘rganish o‘zbek falsafasi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

⁶ Düzen, *Aziz Nesefti‘ye Göre Allah, Kainat ve İnsan*. – B. 34-36.

⁷ Ridgeon. *Nothing But The Truth: The Sufi Testament of ‘Aziz Nasafi’*. – B. 29.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Aziziddin Nasafiy. Komil inson. Komilov. N. Davlatov O tarjiması – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000-2013.
3. Ja‘far Xolmo‘minov. Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta‘limoti. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
4. Komilov. N. Komil inson. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
5. Imom Muhammad G‘azzoliy. Kimyoyi saodat. – Toshkent: Hilol nashr, 2021.
6. Najmiddin Komilov. Komil inson haqida to‘rt risola. / Fors tilidan tarjima. – Toshkent: Ma‘naviyat, 1997.
7. Abdullayev. A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Termiz, 2007.
8. Aziziddin Nasafiy. Bayon at-tanzil. Bodleian Library, Oxford. – B. 1a.
9. Kâtib Çelebi, Keşfü’z-Zünûn, nşr. Kilisli Muallim Rifat-Şerafeddin Yaltkaya, Tarih Vakfı Yay. Istanbul, 2017. J. II. – B. 1805-1806.
10. Düzen, Aziz Neseff’ye Göre Allah, Kainat ve İnsan. – B. 34-36.
11. Ridgeon. Nothing But The Truth: The Sufi Testament of ‘Azîz Nasafi’. – B. 29.
12. Reşat Öngören. Sa‘deddîn-i Hammûye. DİA, c. XXXV, TDV Yay. Istanbul, 2008. – B. 390.

Research Science and
Innovation House

